


NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumotlar)

Navoiy viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 386,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 139,0 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 247,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 82,5 mlrd. so'mni (2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shaharlari misol keltirishimiz mumkin.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish Xatirchi tumani, Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navoiy shahri, Qiziltepa tumanida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Xatirchi tumaniga va aksincha eng past ko'rsatkich Tomdi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 82,8 % va 139,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining chakana savdo
tovar aylanmasidagi hajmi**


	Jami, mlrd. so'm	<i>Jamidan:</i>			
		Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	1 386,5	139,0	10,0	1 247,5	90,0
Navoiy sh.	493,9	128,6	26,0	365,3	74,0
Zarafshon sh.	122,7	2,8	2,3	119,9	97,7
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	223,9	0,6	0,3	223,3	99,7
Konimex	36,0	0,3	0,7	35,7	99,3
Qiziltepa	162,0	1,8	1,1	160,2	98,9
Navbahor	71,7	0,2	0,3	71,5	99,7
Nurota	52,5	0,5	1,0	52,0	99,0
Tomdi	10,2	0,1	0,8	10,1	99,2
Uchquduq	55,8	0,4	0,8	55,4	99,2
Xatirchi	157,8	3,7	2,3	154,1	97,7

Shuningdek, yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, chakana tovar aylanmasi tahlil qilinganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 493,9 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 101,7 %) ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 1 247,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,6 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,0 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlar ichida Navoiy shahri, Qiziltepa tumani, Karmana tumani, Zarafshon shahri va Xatirchi tumanini misol keltirishimiz mumkin.

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, foizda**



2020-yilning yanvar-mart oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,0 foizni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Karmana (99,7 %), Navbahor (99,7 %), Konimex (99,3 %), Tomdi (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (26,0 %), Zarafshon shahri (2,3 %) va Xatirchi tumanida (2,3 %) kuzatilgan.


Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-mart oylarida 1 380,4 mld. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,8 foizdan 99,6 foizga kamayди.

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so'm**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	1 386,53	1 380,41	6,12
Navoiy sh.	493,87	487,79	6,08
Zarafshon sh.	122,73	122,73	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	223,89	223,85	0,04
Konimex	35,96	35,96	-
Qiziltepa	162,04	162,04	-
Navbahor	71,71	71,71	-
Nurota	52,55	52,55	-
Tomdi	10,23	10,23	-
Uchquduq	55,75	55,75	-
Xatirchi	157,80	157,80	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi**

2019-yil yanvar-mart




2020-yil yanvar-mart



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-mart oylarida 6,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizdan 0,4 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (35,6 %), Karmana tumani (16,1 %), Qiziltepa tumani (11,7 %), Xatirchi tumani (11,4 %), va Zarafshon shahri (8,9 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulush, foizda



Jumladan, 2020-yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 32,2 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 12 % ga kamaydi.

Bunda jami savdo aylanmasining 91,0 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	32,17	29,66	2,51
Navoiy sh.	12,49	10,02	2,47
Zarafshon sh.	4,42	4,42	-
tumanlar:			
Karmana	6,03	5,99	0,04
Konimex	0,64	0,64	-
Qiziltepa	2,60	2,60	-
Navbahor	1,04	1,04	-
Nurota	0,67	0,67	-
Tomdi	0,29	0,29	-
Uchquduq	1,09	1,09	-
Xatirchi	2,90	2,90	-


Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-mart oylarida 29,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 96,4 foizdan 92,2 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-mart oylarida 2,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,6 foizdan 7,8 foizga ko'paydi.

Viloyatda yirik umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami, mlrd. so'm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar		
			Hajmi, mlrd. so'm	2019-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	32,17	88,0	2,91	77,4	9,0
Navoiy sh.	12,49	87,0	2,87	76,9	22,9
Zarafshon sh.	4,42	88,5	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	6,03	91,9	0,04	141,4	0,7
Konimex	0,64	86,0	-	-	-
Qiziltepa	2,60	86,3	-	-	-
Navbahor	1,04	85,6	-	-	-

Nurota	0,67	86,4	-	-	-
Tomdi	0,29	93,3	-	-	-
Uchquduq	1,09	88,8	-	-	-
Xatirchi	2,90	86,8	-	-	-

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining savdo aylanmasi 2,9 mlrd. soʻmni (2019-yilning mos davriga nisbatan 22,6 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining savdo aylanmasi 29,3 mlrd. soʻmni (2019-yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik umumiyligi ovqatlanish subyektlarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami, mlrd. soʻm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari		
			Hajmi, mlrd. soʻm	2019-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	32,2	88,0	29,3	89,3	91,0
Navoiy sh.	12,5	87,0	9,6	90,5	77,1
Zarafshon sh.	4,4	88,5	4,4	88,5	100,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	6,0	91,9	6,0	91,7	99,3
Konimex	0,7	86,0	0,7	86,0	100,0
Qiziltepa	2,6	86,3	2,6	86,3	100,0
Navbahor	1,0	85,6	1,0	85,6	100,0
Nurota	0,7	86,4	0,7	86,4	100,0
Tomdi	0,3	93,3	0,3	93,3	100,0
Uchquduq	1,1	88,8	1,1	88,8	100,0
Xatirchi	2,9	86,8	2,9	86,8	100,0


NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumotlар)

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 364,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 33,0 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 258,8 mlrd. so'mni, 2019-yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 70,9 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi esa 29,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 195,2 mlrd. so'm (2019-yilning mos davriga nisbatan 51,8 %)ni tashkil etadi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm



Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2020-yil yanvar-mart oylarida 364,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 99,94 foizdan 99,91 foizga kamaydi.

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	364,8	364,5	0,3
Navoiy sh.	195,2	195,2	-
Zarafshon sh.	9,7	9,7	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	84,1	83,8	0,3
Konimex	1,7	1,7	-
Qiziltepa	28,2	28,2	-
Navbahor	13,9	13,9	-
Nurota	7,2	7,2	-
Tomdi	0,7	0,7	-
Uchquduq	7,5	7,5	-
Xatirchi	16,6	16,6	-

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi



2019-yil yanvar-mart

2020-yil yanvar-mart




Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2020-yil yanvar-mart oylarida 0,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,06 foizdan 0,09 foizga ko'paydi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi

Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (53,5 foiz), Karmana tumani (23,0 foiz), Qiziltepa tumani (7,7 foiz) va Xatirchi tumani (4,5 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar va
kichik biznes subyektlarining hajmi**

	Jami, mlrd. so'm	Kichik biznes subyektlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Navoiy viloyati	364,8	258,8	70,9	106,0	29,1
Navoiy sh.	195,2	89,5	45,9	105,7	54,1
Zarafshon sh.	9,7	9,7	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	84,1	84,1	100,0	-	-
Konimex	1,7	1,7	100,0	-	-
Qiziltepa	28,2	28,2	100,0	-	-
Navbahor	13,9	13,9	100,0	-	-
Nurota	7,2	7,2	100,0	-	-
Tomdi	0,7	0,7	100,0	-	-
Uchquduq	7,5	7,5	100,0	-	-
Xatirchi	16,6	16,3	98,3	0,3	1,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahri va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mayjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36**